

**TA'LIM SOHASIDA YANGI YO'NALISH - MEHRLI MAKTAB**

**Baxieva Manzura Mirzabaevna**  
“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi  
Qoraqalpog’iston Respublikasi filiali tarbiyachisi

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan yangi O’zbekistonimizda endi har yili yoki har oyda emas, balki har kuni va har soatda yangi o’zgarishlar, har bir sohada yangi burilishlar sodir bo’layotganiga biroz moslashib ham qoldik. Bugun farzandlarimizga shunday ta’lim va tarbiya berishimiz kerakki, bola har qanday sharoitda ham zamonaviy ta’lim va texnologiyalar asosida ta’lim olib, rivojlanishdan orqada qolib ketmasligi o’ta muhimdir.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-maydagi 234-sон qarori bilan Respublika bolalar gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya markazida davolanayotgan bolalarga maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o’rta ta’lim berish maqsadida “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasai tashkil etildi. Maktab tashkil etilishi bilan yangi – gospital pedagogika sohasi ham boshqa ta’lim sohalari qatorida o’z faoliyatini boshladi.

Usbu markazda uzoq muddat davolanayotgan mehrga muhtoj bolajonlarimiz endilikda mehr bilan ta’limni-tarbiyani birgalikda olishga muvaffaq bo’lmoqda. Mehrli maktabning asosiy maqsadi-davolanayotgan bolalarning ijtimoiy hayotga moslashishi, ularning keyingi ta’lim muassasalarida ta’limni davom ettirishga tayyorligini ta’minlash, va asosiysi, bolalar hayoti va sog’ligi muhofazasini ta’minlashdan iborat. Bu yerda faoliyat olib boradigan pedagog xodimlardan tabassum to’la iliq yuzlar, mehr to’la qalblar, iroda, sabr-bardosh, e’tibor va ozgina harakat talab qilinadi.

Mehrli maktabimizda 2 turdagи maktabgacha ta’lim guruhlari faoliyat ko’rsatadi.

1.Maktabgacha ta’lim gospital guruhlari- 2 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan bolalar uchun tashkil etiladigan guruhlar.

2.Ilk rivojlanish yoshidagi bolalarga mo’ljallangan o’yin guruhlari-1,5 yoshdan 2 yoshgacha bo’lgan bolalar uchun tashkil etiladigan guruhlar.

Bu yerda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya jarayoni mazmuni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi asosida ishlab chiqilgan dastur bilan, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablariga muvofiq belgilanadi. Davolanayotgan bolalarni maktabgacha gospital guruhlarga qabul qilish esa Mehrli maktab tomonidan taqdim etiladigan ro’yxatlar asosida amalga oshiriladi. E’tiborga molik jihat, sog’ligi tufayli guruhga chiga olmaydigan bolalar uchun xonalarda individual ta’lim berish yo’lga qo’yilgan bo’lib bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Men uchun eng quvonarlisi 2023-yil 1-iyundan Mehrli mакtab davlat ta'lim muassasasining bir filiali bizning Qoraqalpog'iston Respublikasida Qoraqalpoq medicina instituti binosida bolalar onkogematologiya bo'limida tashkil etilgani bo'ldi. Nimasi bilan quvonarli, chunki bu yerda davolanayotgan har bir mitti qalb egalari va ularning ota-onalari uchun bu katta motivaciya. Chunki har bir ota-ona uchun bolasining sog'ligi, quvonchi, tabassumi barcha qolgan narsalardan ustundir.

Men aynan shu mакtabda maktabgacha ta'lim guruhida faoliyat yuritayotganidan, bu yerdagi bolajonlarning kayfiyatlarini ko'tarishda, qiziqishlarini yanada rivojlantirishda, ota-onalarning farzandlariga dalda bo'lishiga yordam bera oladigan psixologik tavsiyalar berishda, asosiysi bolajonlar salomatligi yaxshilanishiga ozgina o'z hissamni qo'shayotganidan qalbim har doim taskin topadi. Mashoiqlarimiz ham aytgan edi: "Savobli ishni har kim har kuni qilish kerak".....

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-maydagи 234-sonli qarori  
"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi